



SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY ALOQALARINI KENGAYTIRISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMI

PhD, dots. **Tursunov Bekmuxammad Omonovich**
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
ORCID: 0000-0001-9297-8361
omonovich-0387@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish jarayonida Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan bog'liq hamkorlikning rivojlantirish tizimi doirasidagi kordinatsion munosabatlar va uni rivojlantirish mexanizmlarining tashkiliy asosini muvofiqlashtirish yo'llari tadqiq etilgan. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida keng ko'lamlı savdo-iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish jarayonida mavjud muammolarning ta'siri tahlil qilingan. Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish tizimi va uni muvofiqlashtirish yo'nalishlariga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro iqtisodiy hamkorlik, xalqaro bozor tizimi, integratsiya jarayonlari, eksport salohiyati, investitsiya muhiti, investitsion loyiha, eksport diversifikatsiyasi.

СИСТЕМА РАСШИРЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЕ РЕАЛИЗАЦИИ В РАМКАХ ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА

PhD, доц. **Турсунов Бекмухаммад Омонович**
Ташкентский гуманитарный университет

Аннотация. В статье в процессе расширения внешнеэкономических связей Узбекистана исследуются пути координации организационной основы координационных отношений и механизмы их развития в рамках системы развития сотрудничества, связанной с Шанхайской организацией сотрудничества. Анализируется влияние существующих проблем на процесс установления широкомасштабных торгово-экономических связей между государствами-членами Шанхайской организации сотрудничества и Республикой Узбекистан. В рамках Шанхайской организации сотрудничества разработаны научное предложение и практические рекомендации по системе расширения внешнеэкономических связей Узбекистана и направлениям ее координации.

Ключевые слова: международное экономическое сотрудничество, международная рыночная система, интеграционные процессы, экспортный потенциал, инвестиционный климат, инвестиционный проект, экспортная диверсификация.

SYSTEM OF EXPANSION OF FOREIGN ECONOMIC RELATIONS OF UZBEKISTAN AND THE MECHANISM OF ITS IMPLEMENTATION WITHIN THE FRAMEWORK OF THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION

PhD, assoc. prof. **Tursunov Bekmukhammad Omonovich**
Tashkent University of Humanities

Abstract. *In the process of expanding foreign economic relations of Uzbekistan, the article examines the ways of coordinating the organizational basis of coordination relations and the mechanisms for their development within the framework of the cooperation development system associated with the Shanghai Cooperation Organization. The impact of existing problems on the process of establishing large-scale trade and economic relations between the member states of the Shanghai Cooperation Organization and the Republic of Uzbekistan is analyzed. Within the framework of the Shanghai Cooperation Organization, a scientific proposal and practical recommendations on the system for expanding Uzbekistan's foreign economic relations and the directions for its coordination have been developed.*

Keywords: *international economic cooperation, international market system, integration processes, export potential, investment environment, investment project, export diversification.*

Kirish.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini ko'p vektorlik rivojlanish tizimiga ega ekanligi, mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda mustahkam iqtisodiy diplomatiya zaruriyatini yuzaga keltiradi. O'z o'rnida xalqaro maydonda yuz berayotgan geosiyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakat mamlakatda aholi sonining ortib borayotganligi, ichki bozorni kengaytirish bilan birga eksport salohiyatidan samarali foydalanish hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarishni tashkil etishda texnologik taraqqiyot yutuqlaridan samarali foydalanish hisobiga tovar va xizmatlarning xalqaro bozorlardagi raqobatdoshligini ta'minlash jarayonlariga nisbatan o'ziga xos e'tibor talab etadi.

Istiqbolda mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy hamkorlik aloqalarini kengaytirishda ko'p tomonlama shartnoma munosabatlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan xalqaro hamkorlik tashkilotlarining mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning "O'zbekiston-2030 strategiyasi"da an'anaviy sheriklar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan xalqaro hamkorlik geografiasini kengaytirishda "MDH mamlakatlari bilan an'anaviy va keng qamrovli strategik aloqalarni amalga oshirish, Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy va texnologik hamkorlikni mustahkamlash, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar bilan mintaq bozorlariga yo'naltirilgan eksport hajmini oshirish" (Farmon, 2023) kabi qator vazifalarning belgilanganligi, xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladigan xalqaro tashkilotlarda mamlakatimizning teng iqtisodiy manfaatlarini yuzaga keltirishga xizmat qiladigan shartnoma munosabatlarini tashkil etish tizimini ilmiy-amaliy asoslarini chuqur o'rganish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Xususan, bu borada Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmiga nisbatan tizimli yondashuvni amalga oshirish, tashkilotga a'zo davlatlar bilan O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini tenglik va o'zaro manfaatlilik tamoyillari asosida rivojlantirish, "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni 97-maqsadiga muvofiq Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integrasiya jarayonlarini chuqurlashtirish (Farmon, 2022) jarayonlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish tizimiga yo'naltirilgan keng ko'lamlı tadqiqotlar xorij iqtisodchi olimlaridan Li (2021) ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etib, tadqiqot jarayonida mintaqaviy tovar ayriboshlash hajmini oshirish, tashkilotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida iqtisodiyot va gumanitar hamkorlik sohasidagi munosabatlarning o'rniga alohida ahamiyat beriladi. Li (2015) ilmiy tadqiqotlarida Shanxay hamkorlik tashkiloti orqali mintaqaviy tovar ayriboshlashni tartibga solishda tashkilotga a'zo davlatlarning tovar ishlab chiqarish jarayonida innovasiyalarga nisbatan umumiy standartlarni qo'llash tovar yetkazib berishning optimallashtirish vositasi sifatida e'tirof etiladi. Kaukenov (2007) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari hamkorlik tashkilotini Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mustahkam o'rin egallayotganligi, bu xalqaro bozor tizimida qit'alararo tashqi savdo faoliyati bilan bog'liq savdo munosabatini tartibga solish, hamda bir qancha yirik loyihalarni amalga oshirish hisobiga savdo karidorlarini kengaytirishga ijobiy ta'siri yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Efremenko (2019) tomonidan Shanxay hamkorlik tashkilotiga Hindiston va Pokistonning to'liq a'zo bo'lganidan keyingi holatlariga doir ssenariylar tayyorlangan bo'lib, tadqiqot jarayoniga asoslangan ssenariylarda tashkilot faoliyatini kengaytirishni iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta'siri ijobiy baholangan.

Mamlakatimiz olimlaridan Nurimbetov (2022) tadqiqotlarida O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotidagi ishtirokida pragmatizmga katta e'tibor qaratiladi. Ya'ni, respublika tomonidan tashkilot doirasida ko'ptomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan maqsadlarni milliy manfaatlarga hamda mintaqada barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlarga ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Almurodova (2022) tadqiqotlarida Shanxay hamkorlik tashkilotida O'zbekistonning missiyasi va tashkilotga a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlar bilan ShHT Xartiyasiga muvofiq iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, mintaqa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishda a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik aloqalarini kengaytirish yo'nalishlari tizimlashtirilgan. Nigmatov (2023) tadqiqotlarida O'zbekistonning tashkilotga a'zo davlatlar bilan teng tomonlama savdo-iqtisodiy va investisiya sohalaridagi hamkorlik munosabatlarini kengaytirishni ta'sirchan mexanizmlarini shakllantirish maqsadga muvofiq ekanligi qayd etiladi.

Yuqoridagi tadqiqotlarda Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish tizimining tashkiliy asosi bilan bog'liq jarayonlarga alohida ustuvorlik berilgan bo'lib, tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish tizimini amalga oshirish mexanizmini shakllantirishga e'tibor berilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi mantiqiy abstraksiya usuli orqali tadqiq etilgan. Savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishning amaldagi holati tizimli tahlil, tashkilotga a'zo davlatlar bilan hamkorlik shartnomalariga doir munosabatlarning tegishli asosi induksiya va deduksiya, statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan holda yoritib berilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

2001-yil 15-iyunda Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federasiyasi, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalarining rahbarlari tomonidan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) tashkil etildi. O'zbekistonning mazkur tashkilotga a'zoligi tashkilotning Shanxay hamkorlik tashkiloti yoki "Shanxay oltiligi" deb o'zgartirilishiga sabab bo'ldi. "Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risidagi deklarasiya", "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha Shanxay konvensiyasi" va "O'zbekistonning Shanxay

beshligi mexanizmiga ulanishi to'g'risidagi qo'shma bayonot" ShHT tomonidan qabul qilingan dastlabki hujjatlar sifatida e'tirof etiladi.

2003-yil sentyabr oyida Hukumat rahbarlari kengashining yig'ilishida oltita davlatning ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi tasdiqlangan bo'lib, ayni paytda ShHTda iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, savdo va investisiya sohasida qulay shart-sharoitlar yaratish jarayonini boshlash to'g'risidagi hukumatlararo memorandumlar mazkur dastur asosida tashkil etiladi. Hukumatlararo memorandumlarda savdo-iqtisodiy sohada hamkorlikning moslashuvchan shakllari ko'zda tutilgan bo'lib, ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik dasturlari davlatlardagi kompaniyalar va turli mulkchilik shaklidagi korxonalar rahbarlari tomonidan o'zaro imzolangan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

ShHT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikning muhim jihati shundaki, unda barcha a'zo davlatlarning aniq loyihalarda majburiy ishtirok etishi nazarda tutilmagan. Tashkilotga a'zo davlatlar ikki yoki uch tomonlama asosda iqtisodiy tartib bilan bog'liq muammolarga o'zaro yechim topishga muvaffaq bo'lishadi. ShHTdagi iqtisodiy hamkorlik asosan energetika, transport, savdo-iqtisodiy va axborot sohasidagi hamkorlik aloqalariga asoslangan (Хартия, 2021).

Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro tashqi savdo aloqalarini muvofiqlashtirish mexanizmini amalga oshirishga doir dastlabki harakatlari 2003-2004 yillarda ShHT doirasida erkin savdo-iqtisodiy zonalarini tashkil etish g'oyasida ilgari surilgan. 2030-yilgacha tashkilot faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasida ShHTga a'zo davlatlar mintaqaviy bozorlarida tovarlar, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatlanishiga bosqichma-bosqich erishish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida erkin savdo-iqtisodiy zonasi g'oyasining tegishli tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida savdo xarajatlarini kamaytirish;
- mintaqaviy jarayonlarga doir investisiyalarni rag'batlantirish;
- submintaqaviy darajada mehnat taqsimotini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish orqali hududiy sanoat tuzilmasi resurslarini birlashtirish;
- Yevroosiyo sanoat tizimini global sanoat tizimiga integratsiyasini ta'minlash va boshqalar.

Mazkur tamoyillarning tegishli asosi Yevroosiyo qit'asining siyosiy va iqtisodiy xaritasida hali ham defragmentatsiyalangan munosabatlar va mintaqaviy mojarolarni oldini olish imkoniyatini beradi. O'z navbatida Yevroosiyo qit'asining barqarorligini murakkab tuzilishini tashkil etish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik aloqalarida O'zbekistonning faol ishtirokini ta'minlash ishtirokchi davlatlar bilan o'rtada mavjud bo'lgan farqlarga muvofiq teng tomonlama tashqi savdo faoliyatini tashkil etishni obyektiv zaruriyat ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda ShHT hududi yer sharining 35 million kvadrat kilometrdan ortiq bo'lgan hududiga ega bo'lib, mazkur hudud Yevroosiyo materigining 65 foizini tashkil etadi. ShHT aholisining soni 3,5 milliard kishidan ortiq bo'lib, a'zo davlatlar iqtisodiyotining hozirgi bosqichida 4-9 foiz oralig'ida o'sish sur'atlari ta'minlanayotgan bo'lib, global yalpi ichki mahsulotda 30 foiz ulushga ega. Ishtirokchi mamlakatlarning tashqi savdo hajmi 8 trillion AQSh dollaridan ortiq bo'lib, bu ko'rsatkich butun dunyo savdo hajmining qariyb to'rtdan bir qismiga teng.³²

O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarida ShHT ga a'zo davlatlar muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, mamlakat tashqi savdo hajmida Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega.

2021-yilda O'zbekistonning ShHTga a'zo davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasiga eksport hajmi 2 529,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida umumiy eksport hajmining 33,8 foizini tashkil etgan. 2022-yilda 2 632 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 4 foizga oshgan. 2023-yilda Xitoy Xalq Respublikasiga eksport hajmi 2 461,8 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2022-yilga nisbatan 6,5 foizga

³² <https://kapital.kz/economic/127396/vneshnyaya-torgovlya-stran-uchastnits-shos-prevyshayet-8-trln.html>

pasaygan. 2023-yil yakunlari bo'yicha tashkilotga a'zo davlatlar orasida umumiy eksportning 27,2 foizi mazkur mamlakat ulushiga to'g'ri kelgan.

2021-yilda Rossiya Federasiyasi O'zbekiston Respublikasi 2 088,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan eksport hajmini amalga oshirgan bo'lib, tashkilotga a'zo davlatlar orasida 22,7 foiz ulushni tashkil etgan. 2022-yilda Rossiya Federasiyasiga eksport hajmi 3 151,1 mln. AQSh dollarini tashkil etganligi, 2021-yilga nisbatan eksport hajmini qariyb 51 foizga oshganligini ko'rsatadi.

2023-yilda 3 307,6 mln. AQSh dollari ko'rsatkichiga teng bo'lgan eksport hajmi amalga oshirilgan bo'lib, mazkur davlatga qilingan eksport hajmi 2022-yilga nisbatan qariyb 5 foizga oshgan. 2023-yil yakunlari bo'yicha tashkilotga a'zo davlatlar orasida umumiy eksportning 36,5 foizi mazkur mamlakat ulushiga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval

**2021-2023-yillarda O'zbekistonning SHHTga a'zo davlatlarga eksport hajmi
(mln. AQSh dollarida)³³**

	2021 y	2022 y	2023 y
Xitoy Xalq Respublikasi	2 529,1	2 632,0	2 461,8
Rossiya Federasiyasi	2 088,2	3 151,1	3 307,6
Qozog'iston	1 178,4	1 407,5	1 372,5
Qirg'iziston	792,0	982,5	631,5
Tojikiston	501,9	522,1	605,0
Eron	177,1	139,8	180,6
Pokiston	130	185,2	269,2
Belarus	59,6	128,8	119,0
Hindiston	29,9	36,5	108,0

2021-2023-yillarda O'zbekistonning ShHTga a'zo davlatlardan import hajmida Xitoy Xalq Respublikasi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, 2021-yilda 4 923,4 mln, 2022-yilda 6 427,7 mln, 11 260,1 mln AQSh dollariga teng bo'lgan tovar va xizmatlar import qilingan. 2023-yil yakunlari bo'yicha tashkilotga a'zo davlatlar orasida importning 49 foizi mazkur mamlakat ulushiga to'g'ri kelgan.

2-jadval

**2021-2023-yillarda O'zbekistonning SHHTga a'zo davlatlardan import hajmi
(mln. AQSh dollarida)³⁴**

	2021	2022	2023
Xitoy Xalq Respublikasi	4 923,4	6 427,7	11 260,1
Rossiya Federasiyasi	5 462,2	6 230,7	6 576,1
Qozog'iston	2 742,2	3 243,5	3 026,4
Qirg'iziston	161,6	280,7	321,9
Tojikiston	103,6	154,5	151,8
Eron	254,2	296,1	322,8
Pokiston	51,5	112,2	118,1
Belarus	319,2	411,6	501,1
Hindiston	460,6	655,1	648,5

Rossiya Federasiyasidan 2021-yilda 5 462,2 mln, 2022-yilda 6 230,7 mln, 2023-yilda 6 576,1 mln AQSh dollariga teng bo'lgan tovar va xizmatlar import qilingan. 2023-yil yakunlari bo'yicha tashkilotga a'zo davlatlardan amalga oshirilgan importning 28,7 foizi Rossiya Federasiyasi ulushiga to'g'ri keladi.


³³ www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

³⁴ www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

2021-2023-yillarda O'zbekistonning ShHTga a'zo davlatlardan import hajmida yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlardan yana biri, Qozog'iston Respublikasi hisoblanadi. 2021-yilda Qozog'iston Respublikasidan jami qiymati 1 178,4 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan tovar va xizmatlar import qilingan. 2022-yilda ushbu ko'rsatkichning umumiy qiymati 19,4 foizga ortib 1 407,5 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

2023-yilda Qozog'iston Respublikasidan 1 372,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan import amalga oshirilgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan mazkur mamlakatdan import hajmi qariyb 2,5 foizga pasaygan (2-jadval).

2021-2023-yillarda O'zbekistonning SHHTga a'zo davlatlar bilan amalga oshirilgan tashqi savdo balansi, 2021-yilda a'zo davlatlar bilan tashqi savdo balansida 5 423,3 mln. AQSh dollari, 2022-yilda esa 8 756,9 mln. AQSh dollari, 2023-yilda 13 871,6 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan salbiy natijadorlikni qayd etadi (1-rasm).



1-rasm. 2021-2023-yillarda O'zbekistonning SHHTga a'zo davlatlar bilan amalga oshirilgan tashqi savdo balansi (mln. AQSh dollarida)³⁵

Import hajmining yuqoriligini mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish tizimini tashkil etish va modernizatsiyalashga asoslangan mashinalar va asbob-uskunalarining ko'pligi, xarid hajmining yuqoriligi orqali izohlash mumkin.

ShHTga a'zo davlatlar bilan amalga oshirilgan tashqi savdo munosabatlari va uni tashkil etish jarayonida kuzatilayotgan salbiy natijadorlik O'zbekiston iqtisodiyotini tashkilot doirasidagi hamkorlik tizimini tashkil etishda ko'p vektorli faoliyat yo'nalishiga ega bo'lgan savdo hamkorlik salohiyati va mintaqani yanada rivojlangan va integratsiyalashgan iqtisodiy tizimini shakllantirishda transport, savdo va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni chuqurlashtirish, shuningdek, savdo faoliyatini tashkil etishda transaksion xarajatlar hajmini oshib ketishini oldini oladigan transkaridor loyihalar ustida ikki va ko'p tomonlama hamkorlik shartnomalarini ijrosi ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini mavjud tizimi va uning faoliyat natijasi bilan bog'liq yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan xulosalar, kengaytirish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi tashkilot doirasida texnologik ustuvorlikka ega bo'lgan mamlakatlar bilan fan va ta'lim sohasini rivojlantirish, bu borada tegishli kadrlar almashinuv tizimini tashkil etishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda aruriyat uchun kadrlar almashinuv tizimi va moliyaviy kapital erkin oqimini doimiy nazoratini amalga oshirish maqsadida "Shanxay vizasi" tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

³⁵ www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.

Ushbu tizim orqali intellektual migrasiya munosabatlarini tashkil etish, investorlarning tashkilotga a'zo mamlakatlarda investisiya muhitini o'rganish imkoniyatlari yuzaga keladi.

ShHTga a'zo davlat rahbarlari Kengashning 2019 yil noyabr oyida tashkilot faoliyatini 2035 yilgacha rivojlantirish dasturida savdo, bank-moliya hamkorligi, transport, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, turizm, ta'lim, innovatsiyalar, fazoviy rivojlanish va mintaqalararo hamkorlik kabi turli sohalaridagi ustuvor yo'nalishlar bilan birga asosiy e'tibor raqamlashtirish va yuqori texnologiyalarga qaratilinishi qayd etiladi.³⁶

Fikrimizcha, bu kabi qator holatlar Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida o'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi bilan bog'liq quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- hududlarning eksport salohiyatidan samarali foydalanishga doir investitsion loyihalarni muvofiqlashtirish tizimining kompleks mexanizmini ishlab chiqish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ShHTdagi davlatlarga chiqarishga ko'maklashish uchun "Eksport tizimi geografiyasi" raqamli platformasini shakllantirish;

- ikki tomonlama hamkorlik munosabatlari doirasida sanoat ishlab chiqarishning hududiy yondashuvlariga ustuvorlik berishga asoslangan sanoat infratuzilmasini shakllantirish jarayonini qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish;

- savdo-iqtisodiy munosabatlarda yashil texnologiyalarni tijoratlashtirish ekoinnovatsion tizim faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

- eksport tarkibini diversifikatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy modelini gorizontaal eksport diversifikatsiyasi modelidan vertikal eksport diversifikatsiyasi modeliga o'tkazish orqali eksportga yo'naltirilgan korxonalarini innovatsion rivojlanish tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Almurodova, R. (2022). *Shanxay hamkorlik tashkiloti va O'zbekiston (2001-2017 yillar). Models and Methods in Modern Science*, 1(14), 44–51. Retrieved from <https://econferences.ru/index.php/mmms/article/view/575>

Farmon (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni.*

Farmon, (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.*

Nigmatov A.X. (2023) *Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligi// "Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari: tarixiy mushtaraklik va hamkorlik istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. T., 121-126 b.*

Ефременко Д.В. (2019) *Шанхайская организация сотрудничества после расширения: новые вызовы и перспективы // Вестник Московского университета. Серия 25. Международные отношения и мировая политика. 2019. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shanhayskaya-organizatsiya-sotrudnichestva-posle-rasshireniya-novye-vyzovy-i-perspektivy>*

Каукунов Адиль. (2007) *Политика Китая в Шанхайской организации сотрудничества // Центральная Азия и Кавказ. №3 (51). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/politika-kitaya-v-shanhayskoy-organizatsii-sotrudnichestva>*

Ли Сяотянь. (2021) *Региональное позиционирование и модель сотрудничества после расширения Шанхайской организации сотрудничества // Международное обозрение, №3. С. 96-118.*

³⁶ <https://ria.ru/20230704/shos-1881483355.html>

Ли Цзиньфэн. (2015) Расширение Шанхайской организации сотрудничества: вызовы и возможности // Исследования России, Восточной Европы и Центральной Азии, №6. С. 36-44.

Нурибегов Р. (2022) Ўзбекистон Шанхай ҳамкорлик ташкилоти: стратегик ҳамкорлик қиррали // ОҲПЛ. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-shanhay-amkorlik-tashkiloti-strategik-amkorlik-irrali>

Хартия (2021) Хартия Шанхайской организации сотрудничества (Санкт-Петербург, 7 Июня 2002 Года) https://www.mid.ru/ru/foreign_policy/rso/1728900/
www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.